



230100, Nukus shahri, Dosnazarov ko'chasi, 62-uy  
Tel.: 0 (361) 222-24-37, 222-95-20, faks: 222-98-30  
web-site: www.kkedu.uz, e-mail: mno.rk@exat.uz

230100, Nókis qalasi, Dosnazarov kóshesi 62-úy  
Tel.: 0 (361) 222-24-37, 222-95-20, faks: 222-98-30  
web-site: www.kkedu.uz, e-mail: mno.rk@exat.uz

«21» genabp 2021-y.

№ 03-01/3-5748 «    »-     2021-j.

## Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori bilan tasdiqlangan kompleks chora-tadbirlar dasturining 15.34-bandida o'quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan besh muhim tashabbus doirasida axborot texnologiyalari to'garaklari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni zarur vosita va jihozlar bilan to'liq ta'minlash yuzasidan topshiriq berilgan.

Mazkur torshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi mavjud 726 ta umumtalim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan beshta muhim tashabbus doirasida 3-tashabbus-yoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishlarini tashkil etish borasida jami 995 ta to'garaklar tashkil etilib, mazkur to'garaklarga jami 20 874 nafar o'quvchilar qamrab olindi.

Ushbu tashkil etilgan to'garaklarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi 6 ta umumta'lim maktablariga (2 ta maktabga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rahbariyati tashriflari chogida, 3 ta maktabga PROON dan va 1 ta maktabga Yoshlar jamgarmasidan) kompyuter jamlanmalari (jami 94 ta rompyuter) va Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan "Elektron kundalik" tizimi joriy etilgan 153 ta umumta'lim maktablariga 1 donadan, 1 ta maktabga esa 10 ta (jami 162 dona) kompyuter texnikalari taqdim etilgan.

2021-2022 - O'quv yili davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida beshta muhim tashabbusning 3-sini - yoshlarni kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishlarini tashkil etish yo'nalishida tashkil etilgan to'garaklarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash borasidagi ishlar davom ettirilib borilishini ma'lum qilamiz.

Ilova: \_\_\_ varaqda.

Vazir o'rinbosari

Sh. Tajimuratov

Ijrochi: R. Xudaybergenov  
Tel.: 93. 485-17-51

Xalq ta'limi tizimiga oid barcha yangiliklardan quyidagi havolalar orqali xabardor bo'lishingiz mumkin



www.uzedu.uz



t.me/uzedu



facebook.com/uzedu



instagram.com/uzedu.uz